

**INGILIZ TILINI O`QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH**

Jumanova Dilbarxon Ahmadaliyevna

Maftuna Eshonxonova Ne'matovna.

Kamola Karimova Alijon qizi

*Beshariq tumani 24 -maktab ingliz tili fani o`qituvchilari*

**Annotatsiya** Ushbu maqola ingliz tilini o`rganish va o`qitishda zamonaviy texnologiyalardan o`rinli foydalanish va o`qituvchning o`z ustida izlanishi, ma`suliyatni his etishi, darslarga yangiliklar kiritishi, darsning qiziqarli va jonli bo`lishini ta`minlashi haqida yozilgan.

**Kalit so`zlar:** innovatsiya, texnologiya, samaradorlik, ixtisoslashtirish, axborotkommunikatsiya, telekommunikatsiya.

**Abstract.** This article is about using innovation technologies in learning and teaching English and teachers` creativity, responsibilities, implementing new methods, making the lesson interesting and lively.

**Key words:** innovation, technology, effectiveness, specializing, Mass Media, telecommunication.

Hozirgi kunda ingliz tilini o`rganishning ahamiyati O`zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo`lib bormoqda. Bir qancha ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o`rganishni yangi metod va yo`llarini hayotga tadbiq qilishmoqda. Bu albatta chet tillarni o`qitish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalardan foydalanib, o`qitishning bir qancha o`ziga xos afzalliklari mavjud. Bundan tashqari, u o`qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o`z navbatida til o`rganiyotgan o`quvchini zamon bilan hamnafas bo`lib, olg`a intilishiga ko`maklashadi. Texnologiya asta sekinlik bilan an`anaviy o`qitishning o`rnini egallamoqda. Bugungi kunda televizion dasturlarda bir qancha ingliz tilini o`rgatishga ko`maklashuvchi yangi dastur va ko`rsatuvarlар muntazam ravishda uzatilib kelinmoqda. Shuni ham alohida ta`kidlash kerakki, bugungi kunda o`qitishning samaradorligini oshirish uchun O`zbekistonda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy qilindi. Misol uchun, multimedya asosida chet tili o`rgatilayotgan o`quvchida to`rt ko`nikmani rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko`rib, ham eshitib o`rganish imkoniyati paydo bo`ldi. Bundan tashqari o`quvchi jonli harakatlarni ko`rib ba`zi so`zlarning ma`nosini taxmin qila oladi va uni tushinishga harakat qiladi. Albatta har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar komputer, radio, CD, DVD qo`llash ta`lim jarayonini yanada olg`a siljib, o`sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o`rganish imkonini beradi.

Ingliz tili darslari davomida ba`zi o`qituvchilarning texnologiyalarni qo`llashni bilmasliklari va foydalanmasliklari, o`quvchilarning bir muncha zerikishlariga olib keladi.

Aynan shu sababli ya`ni o`rganuvchining ishtiyoqini so`ndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan va kamida komputerdan foydalanish o`rganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada ta`minlaydi. Zero, o`rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni o`zlashtirishiga qarab tayyorlangan o`quv materiallari albatta samara beradi. Aksincha, biz o`qituvchilar ushbu talablar asosida o`quv materiallarini tanlamasak, boshlang`ich sinf o`quvchilariga murakkab so`zlardan iborat bo`lgan video-filmlar, qo`shiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki multimedia, komputerlar orqali namoyish etsak, o`rta va yuqori sinf yoki guruh o`rganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat o`quv materiallarini namoyish etganimizda o`rganuvchilarning tilni o`rganishga bo`lgan qiziqishlari asta-sekin so`na boshlaydi va darslarni o`zlashtirmay qo`yishadi. Bu esa o`z navbatida baholarning pasayib ketishi, o`qituvchining o`quvchilar oldida o`z hurmatini yo`qotib qo`yishga olib kelishi mumkin.

Demak, bundan kelib chiqadiki dars davomida texnologiyalardan shunchaki foydalish emas, balki ularni o`z o`rnida qo`llay bilish va texnologiyalardan foydalanish o`quvchi bilimini oshirishga xizmat qilishini ta`minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Hozirgi CEFR ya`ni Xalqaro Yevropa ta`lim standartlarining talablari bo`yicha to`rtta: (writing, reading, listening, speaking) ingliz tilida yozib, o`qib, tinglab, so`zlashib o`rganish kompitensiyalari bo`yicha olib borilayotgan darslar davomida texnologiyalardan unumli va o`rinli foydalanish ahamiatlidir. Masalan, tinglab – tushunish darslarida audio matnlarni qo`yib eshittirishning ham o`ziga yarasha qonun-qoidalari mavjud. Unda asosiy maqsad o`rganuvchi eshitayotgan audio materialni tushunib olishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishi muhimdir. Buning uchun esa eng avvalo, muhitni audio materailni qo`yib eshittirish uchun hozirlash, bunda tinglovchilar osoyishta muhitni ta`minlashlari, o`qituvchi esa qo`yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning yaxshi ishlayotganligiga e`tibor qaratishi va audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlarning tayyor ekanligi va o`rganuvchilar tarqatma materiallar bilan ta`minlangan bo`lishi lozim.

Qo`yilgan barcha talablar amalga oshirilgach, o`qituvchi audio materialni o`rganuvchilarga qo`yib eshittirishni boshlashi mumkin. Eshittiruv kamida ikki marta amalga oshiriladi aks holda til o`rganuvchilar mavzuni tushunmasliklari va audio material eshit bo`lingach bajariladigan mashqlarni to`g`ri bajara olmasliklari mumkin. Shuningdek, so`zlashib va yozib o`rganishda ham texnologiyadan foydalangan holda dars o`tish jarayonida multimedialardan foydalaniib, o`rganuvchilarga video – filmlar, roliklar namoyish qilish va uni muhokama qilish juda samarali usul hisoblanadi. Bunda o`rganuvchilarga tanish bo`lgan lug`at ishlatilishi, yangi va murakkab so`zlar ishtirok etgan bo`lsa so`zlarga izoh berish, yangi so`zlar bilan bog`liq bo`lgan mashqlar bajarib olingach, video materialni namoyish etish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ham albatta tinch, shovqin bo`Imagan muhit, qulay va toza sinfxona, barchaga tamosha qilish imkonining mavjud bo`lishi, ovoz kuchaytirgichlarning ishlayotganini tekshirib chiqish muhimdir. Videoni qo`yib berishdan oldin, o`rganuvchilarning namoyish etilishi kerak bo`lgan video mavzusi haqida suhbatlashish, savol-javoblar o`tkazish, haqiqatdan ham o`rganuvchilar ushbu mavzuga

qiziqishayotganliklariga amin bo`lgach video materialni qo`yib berishi kerak. Video tugagach o`qituvchi o`quvchilarning video-film haqidagi fikrlari bilan qiziqishi, mashqlar bajarishi kerak bo`ladi. Ushbu etaplar to`gri amalga oshirilgach, bu darslar albatta o`rganuvchilarning qiziqliklari va bilimlarining ortib borishiga katta hissa qo`sadi. Bundan kelib chiqadiki, darslarimizni yanada boyitish, o`rganuvchilarni qiziqtira olish, ularning bilimlarini boyitishda zamonaviy texnologiyalarning o`rni beqiyosdir. Ularni to`g`ri va o`rinli qo`llay olish esa yutuqlarimizning asosiy garovi hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng, chet tillarini o`rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko`plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o`rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o`ziga munosib o`rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriqlarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo`qdir”. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini” o`rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o`rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining o`qitilishi, chet tili o`qituvchilarining bilim va ko`nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko`ra umumta`lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o`quvchilari uchun darsliklar yaratildi.

Ushbu talablarga mos ravishda o`quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o`rganishga bo`lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to`rt aspectga (o`qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtirish) bo`linib, ularning har biri bo`yicha alohida tushuncha va ko`nikmalar berilmoqda. Ta`lim texnologiyalari, bu ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta`lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta`lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o`rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o`rganish va o`qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o`rganishning har bir aspect (o`qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtirish)ida qo`l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o`rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o`quvchi bir paytning o`zida so`zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so`z boyligi va uning ma`nolariga e`tibor berishi talab qilinadi. Ta`lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o`quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarini yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o`rgatish va o`rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o`quvchi chet tilidagi video rolklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko`rishi

ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lislini ta'minlaydi. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lislilarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Psixoglarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnni topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiyl qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'limtarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ept bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'rganuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.PQ 1875 "Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi qaror. " Xalq so`zi" gazetasi, 2-bet. 2012 yil,10-dekabr
- 2.Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in Tesol Series II), California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
- 3.Harmer, J. (2007). How to teach English, Harlow, Essex: Pearson-Longman
- 4.Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). Learning and Teaching Information Technology-- Computer Skills in Context, East Lansing, Mi, Eric document ED465377, Retrieved June 7, 2007, from <http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm>.
- 5 Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi /
- 6 М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой учёный. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020) 844

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARI JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLAR VA ULARNING  
AHAMIYATI

**Maxmudova Surayyo Zafar qizi**

*Boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi*

*Guliston shahar 13-sonli*

*umumi o'rta ta'lism maktabi*

**Saitqulova Feruza Ilhom qizi**

*Boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi*

*Guliston shahar 13-sonli*

*umumi o'rta ta'lism maktabi*

**Annotatsiya:** *maqolada matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik texnologiya, ta'lism, muammoli vaziyat, ta'lism metodi, muammoli ta'lism.*

Ma'lumki, har qanday tilni o'rgatish, avvalo shu tildagi so'zlarni o'zlashtirishdan boshlanadi. O'rganilgan so'zlarni boshqa so'zlarga bog'lab, so'z birikmalari va gaplar tuzush orqali ular asta-sekinlik bilan nutq jarayoniga olib kiritiladi: o'yin kichik maktab yoshidagi maktab o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zlikni anglashda, bog'lanishli nutqni o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish mazmunida didaktik o'yinlar alohida ahamiyat kashf etadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo'lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta'sir qudratiga egadir.

Didaktik o'yinlar davomida bolalar jamoa bo'lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o'z navbatida erkin fikr yurita olishlari kuzatiladi. Ma'lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muofiq foydalanish bilan ta'lism jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O'yin - bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Boshlang'ich ta'lism davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga